

## O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARNI TATBIQ QILISHNING METODIK ASOSLARI

**Buranova Shaxista Mengliboevna,**  
Nukus davlat pedagogika instituti,  
O‘zbek tili kafedrasida dotsenti pedagogika fanlari nomzodi,

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18168561>

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogika institutlarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasidan yaratilayotgan zamonaviy tadqiqotlar va ilg‘or xorijiy tajribalarning fanga tadbiq qilinish ahvoli, ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni aniqlashtirish, zaruriy axborot infratuzilmasini yaratish, shuningdek, pedagog kadrlar texnologik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqot, integratsiyalashuv, strategik rivojlanish, o‘qitish texnologiyalari, metodik ta‘minlash, ta‘lim tizimi, zamonaviy tadqiqotlar, texnologik kompetensiya, fundamental tushunchalar, stereotiplar.

**Аннотация.** Статья посвящена современному состоянию исследований и применению передового зарубежного опыта преподавания узбекского языка в педагогических институтах, внедрению современных технологий в образовательный процесс, созданию необходимой информационной инфраструктуры, а также развитию технологической компетентности педагогов.

**Ключевые слова:** исследования, интеграция, стратегическое развитие, педагогические технологии, методическое обеспечение, система образования, современные исследования, технологическая компетентность, фундаментальные понятия, стереотипы.

**Abstract.** The article presents the state of modern research on the methodology of teaching the Uzbek language in pedagogical institutes and the application of advanced foreign experiences to science, the clarification of the introduction of modern technologies into the educational process, the creation of the necessary information infrastructure, as well as recommendations for developing the technological competence of pedagogical personnel

**Key words:** research, integration, strategic development, teaching technologies, methodological support, education system, modern research, technological competence, fundamental concepts, stereotypes.

**Kirish.** O‘zbekistondagi strategik rivojlanish jarayonlari yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni taqozo qilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko‘tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlar, xususan, O‘zbekiston ta‘lim tizimining butun jahon bilan integratsiyalashuvi fanlarni nazriy va amaliy asoslarining takomillashishiga va o‘z navbatida yangi atamalar va tushunchalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar esa bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishi shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: **“Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”**, deya haqqoniy ravishda ta‘kidlaydilar [1.107].

Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning nazariy masalalar bilan bir vaqtda, metodikaga xos fanlarni chuqur o'rganishi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-con "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tadiqlash to'g'risida"gi Farmonlari; 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur maqolamiz qaysidir ma'noda ilmiy ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur holat o'zbek tilini o'qitish metodikasi fanini metodik ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlashtirish va metodik ta'minotni ishlab chiqishni jadallashtirishni taqozo qilmoqda. Albatta, tilshunos olimlar va uslubchilar, ilg'or o'qituvchilar tomonidan o'quv-uslubiy tavsiyalar, adabiyotlar tayyorlanishi va chop ettirilishi borasida yutuqlarimiz mavjud. Jumladan, Respublika ta'lim markazi tomonidan "O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Ona tili ta'limida uzviylik", "Nutq madaniyatini o'rganish", "Til va adabiyot o'qituvchilarining vazifalari", "O'zbek tili" (mustaqil o'rganuvchilar uchun), "Ona tili fanidan plakatlari to'plami", "O'zbek tili fanidan adabiy-ma'rifiy matnlar to'plami" kabi qator qo'llanmalar yaratilib ta'lim muassasalariga etkazilib berilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, umumta'lim maktablari uchun mutaxassislar yetkazib beruvchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha kun tartibida turgan masalalar bisyor. Maqolada o'zbek tili ta'limi jarayonida Qoraqalpog'istonning shimoliy hududlarida bilingivizm sharoitida o'zbek tili ta'limini tashkil etishning ba'zi muammolari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatida yo'l qo'yiladigan nutqiy xatolar, ayrim qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar, mavjud xatoliklar ustida ishlashning metodik asoslari haqida ma'lumot keltiriladi. Mavjud holatning tahliliy xulosalari asosida izohlanadi.

**Tahlillar va natijalar.** Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirish uchun talabalarda maktab ta'limidagi stereotiplarni qayta shakllantirish, ularni oliy ta'limga moslashtirish, kognitiv faoliyatda yangi ko'nikmalarni talab qiladigan oliy ta'limining xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Bunga erishish uchun deyarli barcha pedagoglarga ancha tanish va "o'rtoq" bo'lib qolgan pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim

jarayoniga tatbiq etishni yanada jadallashtirish taqozo qilinadi. Jarayonning jadallashishiga to'siq bo'layotgan bir jihat mavjudki, bu pedagog-xodimlarda fanni o'qitishni metodik ta'minlashga e'tiborning sustligi, oliy ta'limda qo'llash uchun mo'ljallangan zamonaviy metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratishga etarli darajada ahamiyat berilmayotganlida ko'rinadi.

“O'zbek tili o'qitish metodikasi” fani falsafa, tilshunoslik, siklidagi fanlar, didaktika, ruhshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu fan pedagogika siklidagi fan bo'lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog'liq. O'quvchiga o'z ona tilini o'rgatish tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Chunki til hodisalarining o'quvchi ongida voqelanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til va tafakkurning aloqadorligi ona tili darslarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko'maklashadi.

Ma'lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz'iy tushunchalar yig'indisidan tarkib topadi, degan qoida mavjud. Ona tili darslarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo'laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o'quvchi umumiy ta'rif, qoida va xulosalarga keladi. Falsafa fikrlash va rivojlanishga o'zaro uyg'unlikda qaraydi. SHarqning buyuk ensiklopedist olimlari (Umar Xayyom, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va h.k.) rivojlanishni fikrlashning mahsuli deb biladilar.

Til materiallari o'quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallangan bo'lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib sanaladi.

Shuni unutmash kerakki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foqy dalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali amalga oshadi. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” fani pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil qiladi. Til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab, AL va KHKlar ona tili ta'limiga o'z ta'sirini ko'rsatadi; zaruriyat tug'ilganda uni yangilash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Biroq shunday bo'lsa-da, tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni ta'lim muassasalari o'quvchilariga o'rgatishning iloji yo'q va bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. “O'zbek tili o'qitish metodikasi” fani til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o'quvchiga o'rgatish lozimligini hal qiladi. Shuning uchun ham ona tilini o'qitish metodikasi amaliy tilshunoslik deb qaralishi bejiz emas. “Nimani o'qitish,” hal qilingach, uni “Qanday o'qitish?” masalasi ko'ndalang bo'ladi. Bu ta'lim metodlari bilan uzviy bog'lanadi.

Pedagogika institutlarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida mavjud bo'lgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun metodik ta'minotni yaratish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish bilan uzviy

bog'lanadi. Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari bilingvizm sharoitida faoliyat olib boruvchi bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari sanaladi. SHuni hisobga olgan holda tilshunoslik fanlari va til o'qitish jarayoniga aralash ta'limni joriy qilish bo'yicha o'ziga xos metodika ishlab chiqilmoqda. Mazkur metodika mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv-metodik manbalar, didaktik vositalar va materiallar, mezonlarni o'z ichiga oladi. Nazariy ta'lim va amaliy jarayonlarning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va modernizatsiya qilish; talabalarni mustaqil ta'lim olish, axborot yig'ish, uni xotirada saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish, boshqalarga etkazish, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishga o'rgatishga yo'naltirilgan ma'ruza matni, dars ishlanmalarini yanada takomillashtirishni; ijodiy mashqlar turlari, keys-stadilarni, nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni elektron mashq va topshiriqlarga aylantirish orqali ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, og'zaki va yozma nutqining savodli bo'lishiga erishishga qaratilgan texnologiyalarni tatbiq qilish bo'yicha pedagog-xodimlar, magistrantlar hududning tajribali fan o'qituvchilari bilan hamkorlik qilmoqdalar.

O'zbek tilini o'qitishda aralash ta'limni tatbiq etishda yuzaga kelayotgan muammolarning echimini topishda, avvalo ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni aniqlashtirish, zaruriy axborot infratuzilmasini yaratish, shuningdek, pedagog kadrlar texnologik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. O'zbek tilini o'qitish jarayonida kognitiv va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni hisobga olish mutaxassis tayyorlashning asosiy prinsipi sifatida belgilanishi zarurligi alohida e'tiborga olinmoqda.

Oliy maktab o'qitish tizimiga ma'ruza bilan birgalikda amaliy (mashq, seminar) mashg'ulot turlari ham kiradiki, ular ta'limiy, tarbiyaviy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyalarini bajaradi. Amaliy mashg'ulot termini pedagogika adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda izohlanadi. Amaliy mashg'ulot termini keng ma'noda mashq, seminar (ularning barcha turlari va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi).

Amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzadan farqlanadigan asosiy me'yorlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlarida o'ziga xos xarakter bilan namoyon bo'lishidir. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi: agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda esa bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini sinash uchun xizmat qiladi.

O'quv rejasiga ko'ra "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruzalardan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun ma'lum soatlar ajratilgan.

Amaliy mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar.

Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida amaliy ishlar talabaga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlar talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi va eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- mashg'ulotlarni rejalashtira olish va o'tkaza olish;
- mashg'ulotning maqsadini aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash.

O'zbek tilini o'qitishning amaliy usullari doirasi juda keng. Ular dars uchun didaktik materiallarni tayyorlash bo'yicha amaliy mashqlar, ta'lim bosqichlari uchun o'quv dasturlari va darsliklarini o'rganish, darsliklardagi nazariy qoida, amaliy mashq va topshiriqlarni tahlil qilish, o'zbek tilini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan monografiya, qo'llanmalarni kospektlashtirish, dars ishlanmasining strukturasi o'rganish, vaqtli matbuotda berilgan dars ishlanmalari bilan tanishish, tahlil qilish, dars uchun ko'rgazmali materiallar tayyorlash, jadval va tarqatma materiallarning eskizini tayyorlash, tajriba darslarni o'tkazish kabilarni o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Zamonamiz pedagoglari shunday davrda faoliyat ko'rsatmoqdaki, o'zi va o'quvchilarning turmush tarzi, yurish-turishi, kiyinishi, muomala-munosabatlarida, eng muhimi ta'lim-tarbiyaga munosabatida oldingi davrlar o'lchovlari bilan o'lchab bo'lmas darajada o'zgarishlarga guvoh bo'lmoqda. Jamiyat hayotidagi islohotlar ta'lim sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tizimga kirib kelayotgan innovatsiyalar oqimiga qarab olimlarimiz bundan bir necha o'n yillardan keyin xotiraga asoslangan ta'limdan voz kechilishini, kelajakda ta'lim gajetlar va internet texnologiyalariga asoslanishini ham bashorat qilishmoqda. Bunday sharoitda bolalar ta'limi xizmatlari faol tarzda rivojlanishi, yaqin 10–15-yilda, ehtimol, hozir tizimdan tashqari deb ataluvchi ta'lim chegarasiz bo'lib qolishi mumkinligi, onlayn pedagogika singari xizmat yuzaga kelishi, darsliklar yoshi olti yoki oltmish bo'lishidan qat'i nazar, aniq bir o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqib tuzilishi, unda ta'limga oid surat, matn, tasvir, topshiriq, materiallar saralanishi kabilarni hisobga olsak o'qitish metodikasi oldida yangi muammolar, masalalar ko'ndalang bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Ёрқин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо эташимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Bozorova S. Ta’lim tizimida o’qitish texnologiyasi mohiyati // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent: 2006. № 2.
6. Innovatsion ta’lim texnologiyalari” moduli bo’yicha o’quv – uslubiy majmua. Tuzuvchilar: M.Usmanbaeva va b.
7. Yo’ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2004.

